

ASHTARXONIYLAR DAVRIDA BUXORO XONLIGIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

Ochildiyev Sardor Abduxalil o'g'li

NavDPI Tarix fakulteti 2-kurs

talabasi

Ilmiy rahbar: Muftillayeva U.T.

“Ota-bobolarimiz asrlar davomida to’plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy kurashlarni o’zida mujassam etgan bu nodir qo’lyozmalarni jiddiy o’rganish davri keldi”.

I.A. Karimov

O’rta Osiyoda uzoq davr mobaynida hukm surgan Buxoro xonligi ashtarxoniylar boshqaruvi davrida uzoq vaqt mobaynida chuqr o’rganilmay, ilmiy tadqiqotlardan chetda qolib ketdi. Davrga taaluqli tarixiy manbalar tahlili yetarli darajada amalga oshirilmadi. Mustaqillik sharofati bilan tarixning har bir davri, shu jumladan, O’rta Osiyoda hukmronlik qilgan xonliklar davri bo'yicha ham, xususan Buxoro xonligida hukmronlik qilgan ashtarxoniy sulolasi haqida ilmiy asarlar tahlil qilinib, xolisona tarix yaratila boshlandi. Turon hududida XVII asr boshlarida asos solingan shayboniyarning Buxoro xonligi davlatini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Sulolaning eng yetuk vakili Abdullaxon II davrida ya'ni 1557-1598-yillar oraliq'ida ancha taraqqiy etadi, hududi kengayadi, ko'plab davlatlar bilan diplomatik aloqalar yo'lga qo'yiladi. Lekin u vafot etganidan so'ng 1598-yil taxtga o'tirgan Abdilmo'min yaxlitlikni taminlay olmaydi. Natijada ichki va tashqi, harbiy va siyosiy kurashlar Buxoro xonligi hokimiyati tepasiga ashtarxoniylar sulolasining kelishiga yo'l ochiladi. Bu sulolaning taxtga kelishi va shayboniylar sulolasining taxtdan ketishi masalasida bir qancha mulohazalar mavjud.

“Shayboniylar Buxoroda 1598-yilgacha hukmronlik qildilar keyin esa hokimiyatga joniylar keladi. Ular Jo'jining o'g'li O'rda avlodidan bo'lib, shayboniy larga ona tarafdan qarindosh edi”³³. Lekin ayrim manbalarda Ashtarxoniylar sulolasi Jo'jixonning o'n uchinchi o'g'li To'qay Temurga borib taqaladi. Jo'jixonning katta o'g'li Botuxon To'qay Temurga 14 ulusni mulk qilib bergen degan fikrlar ham mavjud. Shunday qilib 1601-yilda Buxoro xonligida hokimiyat yangi sulola-ko'p hollarda joniylar(Joni Muhammad nomidan) yoki

³³ Bosvort K.E “Musulmon sulolalari (yilnomalar va shajaralar bo'yicha ma'lumotnomalar)” T.Fan 2007.-116-b.





ashtarxoniyalar (kelib chiqish o'rni bo'yicha) degan nom bilan yuritilgan To'qay Temur sulolasiga o'tdi. Ba'zi manbalarda aytishicha Buxoro taxtiga Boqi Muhammadxon o'z otasi Jonibek Muhammadxonni o'tqazgan va uning nomidan tangalar ham zabit qildirgan, biroq Jonibek Muhammad Buxoro taxtidan voz kechgan. Buning asosiy sababi hokimiyatning qonuniyligi edi. Ashtarxoniyalar sulolasining Movaraunnahrga kelib qolish masalasiga yozma manbalardan tashqari qabrtosh yozuvlari ham ba'zi aniqliklarni kiritadi. B.Aminovning izlanishlari natijasiga ko'ra Kattaqo'rg'on tumaniga qarashli (sobiq Oxunboboyev) Shammi qishlog'i Xon Avliyo mozori topib o'rganilganda, bu yerda ashtarxoniyalar sulolasi yirik vakili va asoschisi Jonibek Muhammadning bobosiga atab yodgorlik toshi qo'yilganligi isbotlangan.

Gap shundaki, qabrtosh shayboniyalar davriga mansub va Jonibek Muhammad bobosining vafot etgan sanasi aniq ko'rsatilgan va bunday ma'lumot qolyozma asarlarda uchramaydi. Toshdan olingan tarixiy faktlar ashtarxoniyalar shajarasini to'ldirishga va ularning Movaraunnahr mintaqasiga kelib qolishiga doir ayrim oydinliklarni kiritishga xizmat qwiladi. Ashtarxoniyalar nasabnomasi haqida fikr yuritilganda bu sulolani "buzilgan" shajara ham deb aytadilar. "Shunday qilib ashtarxoniyalar sulolasining hokimiyatga kelishi shu tarzda kechadi. Ashtarxoni hukmdorlar mamlakatda bir qator islohatlarni amalga oshirish orqali ma'lum darajada bo'lsada xonlik aholisining ijtimoiy ahvolini yaxshilashga harakat qilgan. Lekin amalga oshirilgan islohatlar har doim ham kutilgan natija bermaydi. Yoki oddiy xalqning ma'lum noroziligiga sabab bo'lgan. Bunga misol qilib sulolaning ko'zga ko'ringan a'zolaridan bo'lgan Subhonqulixon davrida yetti yillik soliqning bir martada yig'ib olishi va uning o'g'li Ubaydullaxon davrida amalga oshirilgan pul islohotining samarasizligi xalqning ijtimoiy hayotiga salbiy ta'sir qilgani va buning natijasida turli hududlarda qo'zg'alonlar bo'lib o'tganidan bilishimiz mumkin"³⁴

Ashtarxoniyalar hukmdorlari ham o'zlaridan oldingi sulola vakillari – temuriylar, shayboniyalar singari ilm-fan va madaniyatga e'tiborli bo'lishgan. Dastlabki hukmdorlarning boshqaruvi davrida saroy hayotida shayboniyalar davri nasri va nazmi ta'siri sezilib turdi. Ayni vaqtda ushbu sulola vakillaridan ham bir qator yetuk shoir, olim-fuzalo shaxslar yetishib chiqqan edi. Bularga misol qilib Imomqulixon va Nodir Muhammadning o'g'li shahzoda Qosim Muhammad Sulton, Abdulazizzon, Subxonqulixon va boshqalarni keltirish joizdir. Xususan Qosim Muhammad Sultonning tibbiyotga doir asari bunga misol bo'ladi Yana bir hukmdor Abdulazizzon ijoddha "Aziziy" taxallusi bilan mashhur bo'lib, aniq fanlardan

³⁴ A.Zamonov "Buxoro xonligining Ashtarxoni hukmdorlari" Metodik qo'llanma. Toshkent."Bayoz"2021-118-b.





matematikani juda yaxshi bilar, xattotlik salohiyatiga ega bo'lgan. Xonlikda ko'zga ko'ringa hukmdorlardan yana biri nazmda "Nishoniy" taxallusi bilan ijod qilgan, o'z oldiga tib ilmi olimlarini yig'ib, tibbiy kechalarni tashkil qilib o'zi ham bularda ishtirok etgan va oid asarlar ham yozib qoldirgan.

Shundan kelib chiqib aytish mumkunki, ashtarxoniyalar o'z hukmronligi davrida Buxoro xonligi tarixida o'zlaridan ma'naviy me'ros qoldira olganlar. Xonlar, ular bilan bir qatorda yuqori lavozimdagи amaldorlar ham ma'naviy hayot yaxshilanishiga o'z hissalarini qo'sha oldilar. Bu davrda ko'plab masjid-u madrasalar, bir qancha hovuzlar, karvonsaroylar bunyod etildi. Butun dunyoga mashhur Samarqanddagi Registon ansambili ham aynan shu davrda, bir qancha vaqt otaliq lavozimida ishlagan Yalangto'sh Bahodir tomonidan hozirgi holatga keltirilgan.

Ashtarxoniyalar davrida xonlikning tashqi siyosat qamrovi bir muncha kengayib, xonliklar bu davrda Sharqda Hindistondan g'arbda Usmonli turklar davlatiga qadar mamlakatlar bilan diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yganlar. Mamlakatalar bilan tashqi aloqalar olib borishda mamlakat hukmdorlari bo'lgan xonlarning diplomatic qobiliyati, keng dunyoqarashi, asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilgan. Bu davrda eng ko'p elchilik aloqalari Rossiyada hukmronlik qilgan Romonovlar sulolasи va Hindistonda hukmronlik qilgan boburiylar sulolasи bilan bo'lgan bo'lsa, qo'shni davlatlardan qozoq juzlari va eron bilan ham aloqalar uzilib qolmagan. Bu davlatlar bilan aloqalarning yo'lga qo'yilishining yana bir sababi tranzit savdo aloqalari edi. Masalan, xonlik savdogarlari Rossiyaga chiqishda qozoq juzlari o'lkasidan o'tgan bo'lsa, Rossiyaga Eron va Hindiston bilan savdo qilishda xonlik hududidan o'tgan savdo yo'liga zarurat sezgan. Shu bois ham xonlar tomonidan diplomatik aloqalarni yaxshilanishi tarixiy zarurat bo'lgan .

Xullas, Buxoro xonligini bir yarim asr davomida idora qilgan Ashtarxoniy hukumdarlar davri tarix sahnasida o'z o'rniغا ega bo'lgan va xonlik tarixida o'chmas iz qoldirgan .

